

## Тарқатма материал маъруза-8

### Ideal gaz qonuni. Gazlarning molekulyar-kinetik nazariyasi.

Gaz molekulasi o'lchamga va massaga ega bo'lib xaotik harakatda bo'ladi. Har bir molekula asosan hamma vaqt erkin harakat qiladi va ba'zan boshqa molekulalar bilan yoki idish devorlari bilan elastik ravishda to'qnashib turadi. Bunday model ideal gaz hisoblanadi.

Idish devoriga kelib urilganda molekula devorga impuls beradi, bu impulsning son qiymati molekula impuls o'zgarishining devorning  $\Delta S$  elementi,  $\Delta t$  vaqt ichida  $\Delta S$  ga normal bo'yicha yo'nalgan,  $\Delta K$  yig'indi impuls oladi.

Mexanikadan ma'lumki,  $\Delta K$  ning  $\Delta t$  ga nisbati  $\Delta S$  ga ta'sir etuvchi kuchga bu kuchning  $\Delta S$  ga nisbati esa R bosimga teng.

Molekulalar mutlaqo tartibsiz, xaotik ravishda harakat qiladi, ular barcha yo'nalish bo'yicha bir xil ehtimollik bilan harakat qiladi.

Molekulalar tezligining kattaligi xilma-xil bo'ladi. To'qnashish natijasida bir molekula tezligi ortsa, ikkinchi molekulaning tezligi kamayadi.

Molekulalarni o'zaro perpendikulyar bo'lgan 3-ta yo'nalish bo'yicha harakatlanadi deb faraz kilamiz.

Agarda gazda N dona molekula bo'lsa, har bir yo'nalish bo'yylab  $N/3$  dona molekula harakat qiladi, ularning yarmi, ya'ni,  $N/6$  qismi bu yo'nalish bilan bir tomonga, ularning yarmi bunga qarama-qarshi harakatlanadi.

**Molekulalarning tezliklari** turlicha bo'lganda, hajm birligi ichida bo'lган n ta molekuladan  $n_1$  tasi tezligi  $v_1$ ,  $n_2$  tasining tezligi  $v_2$  ta molekulaning tezligi  $v_i$  deb faraz qilinsa:

$$n_1 + n_2 + n_3 + n_i \dots + \sum n_i = n \quad (8)$$

Molekulalar tezligining o'rtacha qiymati:

$$v = \frac{v_1 + v_1 + \dots + v_1 + v_2 + v_2 + \dots + v_2 + \dots + v_i + v_i + \dots + v_i + \dots}{n}$$

$$\bar{v} = \frac{n_1 v_1 + n_2 v_2 + \dots + n_i v_i}{n} = \frac{1}{n} \sum n_i v_i$$

kinetik energiyaning o'rtacha qiymatini yozamiz:

$$\bar{\varepsilon} = \frac{1}{2} \sum n_i \varepsilon_i \quad (9)$$

Bu yerda  $n_i^1$  - energiyasi deyarli  $\varepsilon_i$  ga teng bo'lgan molekula.

Molekulalar tezliklar bo'yicha taqsimlanishini hisobga olib, molekulalarning idish devoriga beradigan zarblarini aniqlaymiz (4-chizma).

Tezligi  $v_i$ , bo'lgan molekulalardan  $\Delta t$  vaqt ichida  $\Delta S$  elementiga

$$\Delta N_i = \frac{1}{6} n_i v_i \Delta S \Delta t \quad (12)$$

dona molekula yetib boradi. Zarblarning to'liq soni:

$$\Delta N = \sum \Delta N_i = \frac{1}{6} n_i \Delta S \Delta t \sum n_i v_i \quad (13)$$

(10) ga asosan  $\sum n_i v_i$  almashtirib, birlik yuzaga vaqt birligi ichida beriladigan zarblar soni:

$$\frac{\Delta N}{\Delta S \Delta t} = \frac{1}{6} n \bar{v} \quad \text{bo'ladi.} \quad (14)$$

$$\Delta K = \sum mv_i \Delta N_i = \sum mv_i \frac{1}{6} n_i v_i \Delta S \Delta t \quad (15)$$

Bosimni topish uchun  $\Delta K$  ni  $\Delta S$  ga va  $\Delta t$  ga bo'lish kerak.

$$P = \frac{2}{3} \sum n_i \frac{mv^2_i}{2} = \frac{2}{3} \sum n_i \bar{\varepsilon} \quad (16)$$

$Y\bar{e}_i = mv_i^2/2$  - tezligi  $v_i$  bo'lgan molekula ilgarilanma harakati kinetik energiyasi (11) ga asosan  $\sum n_i \bar{\varepsilon}_i$  ni  $\bar{\varepsilon}$  bilyan almatptipib, R bosimni topamiz:

$$P = \frac{2}{3} n \bar{\varepsilon} = \frac{2}{3} n \frac{mv^2}{2} \quad (17)$$

(17) tenglik gazlar kinetik nazariyasingin asosiy tenglamasi, deb ataladi. (17) asosan bosim hajm birligidagi molekulalar ilgarilanma harakati kinetik energiyasining uchdan ikki qismiga teng. (17) da n-o'zgarmas bo'lsa, bosim molekula ilgarilanma harakatining o'rtacha  $\bar{\varepsilon}$  kinetik eneregiyaga proporsional.

T absolyut temperatura bilan  $\bar{\varepsilon}$  orasidagi proporsionallik koefitsiyentini topish uchun (17) ni idayegal gaz holatining  $PV_{km}=RT$  tenglamasi bilan taqqoslasmiz. (17) ni  $V_{km}$  ga ko'paytiramiz:

$$PV_{km} = \frac{2}{3} (nV_{km}) \bar{\varepsilon} \quad (18)$$

$nV_{km} = N_A$  Avogadro soniga teng ekanligini hisobga olib:

$$PV_{km} = \frac{2}{3} N_A \bar{\varepsilon} \quad (19)$$

ni yozamiz.

(19) ni  $PV_{km}=RT$  bilan taqqoslab:

$$\frac{2}{3} N_A \bar{\varepsilon} = RT \quad (20)$$

ni yozamiz.

$$\bar{\varepsilon} = \frac{3}{2} kT \quad (21)$$

Bu tenglamada  $k=R/N_A$  Bolsman doimiysi, deb ataladi.

$$k = \frac{R}{N_A} = \frac{8.31 \cdot 10^3}{6.02 \cdot 10^{-23}} = 1.38 \cdot 10^{-23} \frac{K}{zpa\delta} = 1.38 \cdot 10^{-16} \frac{zp\varrho}{zpa\delta};$$

(21) tenglamada kinetik energiya absolyut temperaturaga bog'liq, ekanligi kelib chiqadi. Molekulaning massasiga bog'liq emas.

Ideal gaz holatining tenglamasida  $R$  o'mniga  $N_a/k$  qo'yib,  $N_A/V_{km} = n$  teng ekanligini hisobga olib, bosim uchun quyidagi formula olinadi:

$$P=nkT \quad (22)$$

Agar bir necha xil gazdan iborat aralashma olinsa,

$$P=nkT=(n_1+n_2+\dots)kT \quad (23)$$

$$P=n_1kT+n_2kT+\dots \quad (24)$$

$$P=P_1+P_2+\dots = \sum P_i \quad (25)$$

(25) Dalton qonuni. Bu qonunga asosan, ideal gazlar aralashmasining bosimi shu aralashmadagi gazlar parsial bosimlarning yig'indisiga teng bo'ladi